
SAYYORALAR PARADI: NAVBATDAGI TOMOSHA 28 AVGUST KUNI BO'LIB O'TADI



Sayyoralar paradi: navbatdagi tomosha 28 avgust kuni bo'lib o'tadi

Noyob astronomik hodisa davomida ayrim sayyoralarni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin, faqat vaqtni to'g'ri tanlash kerak.

2024 yilda astrofiziklar bir nechta noyob astronomik hodisalar haqida e'lon qildi: kometalar uchishi, quyosh tutilishi, meteor yomg'irlari va nihoyat, sayyoralarning katta paradi. Navbatdagi parad 28 avgust kuni yuz berishi kutilmoqda. Uni qanday kuzatish ko'pchilikka qiziq.

Sayyoralar paradi nima?

Sayyoralarning saf tortishi — astronomik atama bo'lib, bunda ikki va undan ortiq sayyora Quyoshning bir tomonida to'g'ri chiziqda yoki bir-biriga yaqin 20-30 gradusli burchakda joylashadi. Sayyoralar paradi esa ushbu hodisaga beriladigan norasmiy ta'rif. Xususan, NASA o'z nashrlarida "sayyoralar paradi" atamasini qo'llaydi, shuning uchun bu nom ommaviy axborot vositalarida ham keng tarqalgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-08-28 16:24:17